

20. Texnik vositalardan foydalangan holda biror mavzuga dars ishlanma tayyorlang.

Fandasturning informatsion-uslubiy ta'minoti Didaktikvositalar

Didaktikvositalar: metall kesish stanoklarining klassifikatsiya jadvali, kesuvchi asbob turlari, texnologikjarayonkartalari, tarqatma materiallar.

Jihozlarvauskunalar, moslamalar:elektrondoska-Hitachi, LCD-monitor, elektronko'rsatgich (ukazka).

Video-audioskunalar:videovaaudiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyutervamultimedialivositalar: kompyuter,Delltipidagiproektor,DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladiganadabiyotlarro'yxati Asosiy adabiyotlar

1. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov O.A.Qo'ysinov Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014,449 b

2. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: 2009, 427b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1.O.A.Qo'ysinov, V.N.Sattorov, H.S.Yakubova. Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011, 79 b.


2.O.A.Qo'ysinov, H.S.Yakubova, F.S.To'rabekov, S.Rajabova. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. T.: Nizomiy nomli TDPU,2013. 160 b.

3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Mehnat ta'limi, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiy. (1-9sinflar), "Toshkent- 2010"

1. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov O.A.Qo'ysinov va bosh. Mehnat ta'limi 5-sinf darsligi T."Sharq" 2012, 235b

Elektron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

BD-5112100 -3.03

2016- yil "25" 08



MEHNAT TA'LIMI O'QITISH METODIKASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000	-	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110 000	-	Pedagogika
Ta'limyo'nalishi:	5112100	-	Mehnat ta'limi

Toshkent - 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "25" 08 dagi "55"-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliyva o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning

2016-yil "2" 08 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

O.A.Qo'ysinov - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida "Kasb ta'limi metodikasi" kafedrası mudiri pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

H.S.Yakubova - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida "Kasb ta'limi metodikasi" kafedrası katta o'qıtuvchısı

Taqrizchilar:

M.Z.Murtazaev A.Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti "Mehnat ta'limi va umumtexnika fanlari" kafedrası pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

M.K.Gazieva Toshkent shahar Olmazor tumani 134-umumiy o'rta ta'lim maktabı direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan vavavsiya qilingan (2016-yil 11 » 04 dagi 10-sonli bayonnomasi).

Kirish

Ushbu o'quv dastur talabalarning pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlaridan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tadbiiq etish, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari mehnat ta'limi darslarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari bilan tanishtirish, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish masalalarini qamraydi.

Fanning o'quv maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad-talabalarni har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida mehnat ta'limi darslarida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, mehnat ta'limi darslarida milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs-mehnat ta'limi o'qituvchisi sifatida mehnat ta'limi fanning o'quv meyoriy xujjatlarini tahlil qilish va qayta ishlash; mehnat ta'limi darslarini samarali o'qitish metodlaridan, dars shakllaridan foydalana olish; pedagogik va axborot texnologiyalar asosida darslarni tashkil qilish va o'tkazishni shakllantirishdir

Fanning vazifasi bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini pedagogik-psixologik bilimlarni maktab o'quvchilarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tadbiiq etish; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish; mehnat ta'limi o'quv ustaxonalarini talab darajasida jixozlash va uni nazorat; maktablarda mehnat ta'limi darslarini o'qitishni samarali tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatishdan iborat.

Faq bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fani bo'yicha ta'lim mazmunining uzviyligi va o'zaro bog'liqligi, mehnat ta'limining umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan aloqasi, mehnat ta'limi mazmunining ishlab chiqarish bilan bog'liqligi, mehnat ta'limi va kasbiy ta'limning uzviyligi, mehnat ta'limining rivojlanish istiqbollari, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatida uzluksizlikni ta'minlash, mehnat ta'limida didaktik tamoyillar, dars shakllari, metodlari, o'quv moddiy texnik ta'minoti, (o'quv materiallari va moslamalar bilan ta'minlanishi); mehnat ta'limida tuziladigan o'quv me'yoriy xujjatlar, davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilish mezonlari va unga qo'yiladigan talablarni, metodik ishlarni *bilishi kerak*;

- o'quvchilarning mehnat tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; o'quv jarayonini tashkil etish va mehnat ta'limiga oid rejalashtiruvchi hujjatlarni ishlab chiqish, mehnat ta'limi darslarini olib borish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;

- ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida aloqalar o'rnatishni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; mashg'ulotlarni o'tkazish; o'quv jarayonini rejalashtirish; tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish; o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash bo'yicha turli testlardan foydalanish; ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan ishlash, mehnat ta'limi darslarini tashkil etish bilan bog'liq barcha hujjatlarni tayyorlash; o'quvchilar bilimini baholay olish; mahalliy, tabiiy materiallardan foydalanish; darslarni tahlil qilish; darslarni pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish va o'tkazish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi umumkasbiy fan hisoblanib, 6 va 7 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (fizika, matematika, axborotlar texnologiyasi, va h.k.), umumkasbiy (umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, kasb hunarga yo'naltirish, uy-ro'zg'or asoslari, mehnat ta'limi praktikumi, texnik ijodkorlik va dizayn, xalq hunarmandchiligi, elektrotexnika robototexnika va elektronika, materialshunoslik va h.k.) va ixtisoslik (texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo'jaligi asoslari) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Fanning ta'limdagi o'rni

Talabalar fanni o'zlashtirish jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'ladilar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mehnat ta'limi darslarida mehnat jarayoni haqida dunyoqarashni shakllantirishga; umummehnat bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga; kasbga yo'naltirish, ularning zamonaviy va milliy kasb-hunarlarini o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Mazkur dastur bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarining darslarni samarali tashkil etishni va o'tkazish metodikasini, o'rgatishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbir qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, jumladan: o'quv faniga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, blits-so'rov, insert texnikasi, guruhlarda ishlash, «B.B.B.», musobaqa, «Venn», muammoli dars, «Aqliy xujum» kabi pedagogik texnologiyalaridan;

- fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarida og'zaki bayon qilish, "Fikrlar hujumi", suhbat-munozara, "Baliq skleti", "BBB", "Rolli oyinlar", muammoli dars, kichik guruhlarda va jamoada ishlash pedagogik texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari umumiy mazmuni

Umumiy metodika

Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari

Onglilik va faollik. Ilmiylik va tizimlilik. Nazariya va amaliyot birligi. Ta'lim-tarbiya birligi. Ko'rsatmalilik. Mustahkam va puxta o'zlashtirish. Yosh va individual xususiyatni hisobga olish. Izchillik. Unumli mehnat asosida o'qitish.

Mehnat ta'limida o'qitish shakllari

Mehnat ta'limida, o'qitish shakllari. Dars (amaliy mashg'ulot). O'quv ishlab chiqarish brigadalari. O'quv sexlari. Usta hunarmandlarga birlashtirib qo'yish. Ekskursiya, kichik guruhlariga bo'lib o'qitish, yakka tartibda, jamoaviy, aralash o'qitish shakllari.

Mehnat ta'limida o'qitish metodlari.

An'anaviy (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, muammoli). No'anaviy o'qitish metodlari.

Xususiy metodika

Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fani

va uning vazifasi

Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fanining mazmuni va fanning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar. «Ta'lim to'g'risidagi» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mehnat ta'limiga oid g'oyalarning aks ettirilishi. Buyuk mutafakkirlarning mehnat ta'limiga oid fikrlari.

Maktab o'quv rejasida mehnat ta'limi, fanining qo'yilishi, uning tarixiy taraqqiyoti

Maktab o'quv rejasining mazmuni. Mehnat ta'limi darslarining o'quv rejadagi o'ri. Maktab o'quv rejasini bilan tanishtirish. O'rta Osiyoda mehnat ta'limining tarkibi topishi. Maktab islohotida mehnat ta'limi fanining vazifalari. Mehnat ta'limining mazmuni, yo'nalishlar bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.

1-9 sinflarda mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash mazmuni

Dastur mazmuni va uning yo'nalishlari. 1-4 sinf o'quvchilarini tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan zaruriy talablar. 5-7 sinflarda umumiy mehnat tayyorgarligi. 8-9 sinf kasbiy tayyorgarlik mazmuni. Akademik litsey va kasb-hunar kollejariga kirish uchun tayyorgarlik.

“Texnologiya va dizayn” yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallaashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar, mashg'ulotlar ishlab chiqarish). Metallga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar). Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash. Elektrotexnika ishlari.

“Servis xizmati” yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

Pazandachilik asoslari (oziq-ovqat mahsulotlari, asbob-uskunalar va moslamalar, taom tayyorlash texnologiyasi). Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi (materialshunoslik, asbob-uskunalar va moslamalar, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi). Buyumlarini ta'mirlash.

“Qishloq xo'jaligi asoslari” yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

O'simlikshunoslik. Qishloq xo'jaligi asbob-uskunasi va undan foydalanish. Qishloq xo'jaligi mashinalari. Chorvachilik asoslari. Elektrotexnika ishlari. Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash.

Mehnat ta'limi darslarini rejalashtirish

Rejalashtirishning maqsadi va vazifalari. Taqvimiy mavzuli reja. Dars rejasi va uning konspekti. Mehnat ta'limida rejalashtiruvchi hujjatlar. O'quv ustaxonalarida yasaladigan buyumlar ro'yxati. Fanlarning o'zaro bog'lanish jadvali.

Mehnat ta'limi o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi

Ko'rgazmalilik didaktik tamoyillari asosida. Zamonaviy ta'lim vositalarining turlari va tavsifi. Ta'lim vositalarining rivojlanish istiqbollari. Elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish.

Mehnat jarayonining tahlili va didaktik tushunchalar

Mehnat jarayonining tahlili. Bilim, ko'nikma, malaka, kasb, ixtisoslik; mehnat jarayoni, texnologik jarayon.

Mehnat ta'limini tashkil qilishning didaktik tizimlari

Ta'limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha Buyum tizimi. Operatsiya tizimi. Operatsiya buyum tizimi. Operatsion kompleks tizimi. Motorli mashq tizimi. Konstruktsion texnologik tizim.

Mehnat ta'limi darslarida amaliy darslarni tashkil qilish metodikasi

Amaliy darsga tayyorgarlik. Joriy, oraliq va yakuniy yo'riqnomalarni o'tkazish tartibi. Dars jarayonida o'qituvchining vazifasi. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga e'tibor. Darsni yakunlash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasini o'qitishni tashkil qilish

Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan materiallarni o'rgatish metodikasi. Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob - uskunalar. Xalq hunarmandchiligi usullarini o'rgatish va buyum tayyorlash.

Yo'nalishlar bo'yicha materialshunoslik bo'limini o'qitish metodikasi.

“Servis xizmati” yo'nalishi bo'yicha materialshunoslik bo'limini o'qitish metodikasi. “Texnologiya va dizayn” yo'nalishi bo'yicha materialshunoslik

bo'limini o'qitish metodikasi. Materiallarning olinishi, Materiallarning xossalari, Materiallarning xususiyatlarini o'qitish metodikasi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi

Mehnat ta'limi o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi. Kasbkorlik sifatлари. Asbob-uskunalarни ishga sozlash. Xom ashyo va namuna tayyorlash. Ko'rgazmalı qurollar, texnik vositalar. O'qituvchining shaxsiy fazilatları.

O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash

Mehnatni ilmiy tashkil etish. O'qituvchining ish o'rni. O'quvchining ish o'rni. Asbob-uskuna va moslamalar. Sanitariya-gigiena va texnika xavfsizligi talablari.

Mehnat ta'limida baholash mezonlari

Mehnat ta'limida, baholash turlari. Mehnat ta'limi darslari jarayonida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari. Baholashni ob'ektivligi va differentsialligi. Mehnat ta'limi darslarida baho turlari (amaliy, nazariy). Baholashda hisobga olinadigan omillar. Reyting tizimi asosida baholash.

Mehnat ta'limida didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash.

Didaktik va tarqatma materiallarga qo'yiladigan talablar. Test savollarini tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Ko'rgazmalı qurollarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Power Point dasturida taqdimot tayyorlash.

Mehnat ta'limiga, oid metodik ishlar

Umumiy o'rta ta'lim tizimida mehnat ta'limi fani bo'yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi. Metodik ishlarni tashkil qilish shakllari, mazmuni. Metodik ishlarni boshqarish tizimi.

Sindan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish

Maktab sharoitida to'garaklar tashkil qilish. Sinflar, maktablar, tumanlararo ko'rgazmalarni tashkil qilish metodikasi. Maktabdan tashqari to'garaklarga jalb qilish. Fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.

Mehnat ta'limi dars jarayonida tarbiya

Mehnat tarbiyasi. Axloqiy tarbiya. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. Estetik tarbiya.

Mehnat ta'limida ilmiy tadqiqot metodlari

Mehnat ta'limida ilmiy tadqiqot metodlari: kuzatish; suhbat, pedagogik ekskursiya, maktab hujjatlari va o'quvchilar bajaradigan ishlarni o'rganish, laboratoriya eksperimenti, matematik tadqiqot.

Mehnat ta'limida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi

Mehnat ta'limida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi. Ekskursiyaning maqsad va vazifalari Ekskursiya ob'ektini tanlash. Ekskursiyaga tayyorgarlik. Ekskursiyani o'tkazish. Ekskursiyani yakunlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garaklarni rejalashtirish va tashkillashtirish.

To'garak mashg'ulotining rejasini tuzish. To'garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari. Ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish. O'quvchilar ishlab chiqargan mahsulotlar ko'rgazmalari.

Mehnat ta'limida yo'nalishlar bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

“Servis xizmati” yo'nalishi bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. “Texnologiya va dizayn” yo'nalishi bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. “Qishloq xo'jaligi asoslari” yo'nalishi bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.

Mehnat ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Mehnat ta'limi darslarida interaktiv usullarni qo'llash. Mehnat ta'limi darslarida muammoli vaziyat, aqliy xujum, klaster usullarini qo'llash.

Mehnat ta'limida ta'til kunlarida mehnat amaliyotini tashkil etish

Mehnat ta'limida mehnat amaliyotini tashkil etish tartibi. 5-6 sinflarda yo'nalishlar bo'yicha mehnat amaliyotini tashkil etish. 7-8 sinflarda yo'nalishlar bo'yicha mehnat amaliyotini tashkil etish.

Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar

Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar. Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi.

Mehnat ta'limida metod birlashmalar faoliyatini tashkil qilish

Mehnat ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi. Metod birlashmalar va ularning faoliyati. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish (Mahorat maktablari). O'qituvchining jamoaviy uslubiy ishlari. Ochiq darslar va ularni o'tkazish.

Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar

Kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash, tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Kurs ishini bajarish ketma-ketligi. Bitiruv malakaviy ish mazmuni va unda qo'yiladigan muammolarni hal qilish metodikasi.

Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan metodik talablar

Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari. Pedagogik amaliyot turlari: passiv, aktiv, tanishuv va uzluksiz. Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar. Amaliyotchi talabning shaxsiy ish rejasi. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash. Amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar.

Mehnat ta'limini o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyalash

Umum o'rta ta'lim maktablarining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bilan integratsiyalash. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limini oliy ta'lim bilan integratsiyalash. Integratsiyalash jarayoni.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar mehnat ta'limi o'quv dasturlari materiallari mazmuni bilan chuqur tanishadilar, ulardan foydalanishni o'rganadilar, taqvimiy mavzuli reja, o'quv ishlab chiqariladigan mahsulotlar ro'yxati, fanlararo bog'lanish rejasi, o'quv dasturidagi aniq mavzularga doir dars rejasini tuzish va shu mavzular bo'yicha konspekt yozishni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular.

1. Mehnat ta'limi dasturi bilan tanishtirish.
2. Mehnat ta'limi davlat ta'lim standartini taxlil qilish.

3. Taqvimiy mavzuli rejani ishlab chiqish.
4. Nazariy dars reja konspektini ishlab chiqish.
5. Amaliy dars rejasi va konspektini tuzish.
6. Ta'lim texnologiyalariga asoslangan dars rejasini tuzish.
7. Fanlararo bog'lanish rejasini ishlab chiqish.
8. Dars tahlili va uning mazmuni.
9. O'quv ustaxonasida yasaladigan buyumlar ro'yxatini tuzish.
10. Texnologik konstruksion xaritanini ishlab chiqish.
11. O'quvchilar o'zlashtirishi va egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini ishlab chiqish.
12. Mehnat ta'limiga oid test savollarini tuzish.
13. Tarqatma va didaktik materiallar tayyorlash.
14. To'garak mashg'ulotining yillik ish rejalarini tuzish.
15. Mehnat ta'limi fanidan aniq dars mavzusiga taqdimot tayyorlash.
16. Mehnat ta'limi fanidan aniq dars mavzusiga pedagogik texnologiyalarini qo'llash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulot bajarish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarini chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Seminar mashg'ulotlarida tavsiya etiladigan mavzular.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabi islohoti asosida 1-9 sinflarda mehnat ta'limi fanining maqsad va vazifalari. Dastur mazmuni va yo'nalishlari.
2. Mehnat ta'limi fanining tarixiy taraqqiyoti va O'rta Osiyo ziyolilarining pedagogik qarashlari.
3. Mehnat ta'limida o'qitish shakllari
4. Amaliy darsga tayyorgarlik ko'rish yo'riqnomalarini o'tkazish tartibi.
5. Mehnat ta'limida didaktik tushunchalar.
6. Mehnat ta'limida yo'nalishlar bo'yicha o'quv ustaxonalariga qo'yiladigan talablar.
7. 8-9 sinflarda "Ishlab chiqarish asoslari" va "Kasb tanlashga yo'llash" bo'limlarini mazmuni.
8. O'quvchilarni bilim ko'nikma va malakalarini baholash mezonini hamda unga qo'yiladigan talablar.
9. Darsdan tashqari va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish shakli va metodlari.
10. Mehnat ta'limida ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi.

11. Mehnat ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish.
12. Mehnat ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar
13. Umum orta ta'lim maktablarining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bilan integratsiyalash.
14. Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Laboratoriya ishlarida talabalar o'quv dasturidagi aniq mavzularga doir dars rejasini tuzish va shu mavzular bo'yicha konspekt yozish, darslarni tahlil qilish bo'yicha amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Laboratoriya mashg'ulotlarida tavsiya etiladigan mavzular

1. "Tabiiy tolali gazlamalar va ularning xususiyatlari" mavzusini o'qitish metodikasi.
2. "Qo'l ishlari haqida umumiy ma'lumot va ish o'rniga qo'yiladigan talablar" mavzusini o'qitish metodikasi.
3. "Bichish va tikish haqida ma'lumot. Gavdadan o'lchov olish. Fartuk va bog'ichli qalpoqcha chizmasini chizish" mavzusini o'qitish metodikasi.
4. "Xalq hunarmandchiligi to'g'risida umumiy ma'lumot. Kashtachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar" mavzusini o'qitish metodikasi.
5. "Kashtachilik ranglari va rang tanlash. Kashtachilikda ishlatiladigan choklardan naqshlar tikish. Yorma choki, ilma choki, bahiya choki" mavzusini o'qitish metodikasi.
6. "Oyoq yurituvli tikuv mashinalarining tuzilishi. Ishlash printsipi" mavzusini o'qitish metodikasi.
7. "Yubka andozasini modellashtirish. Yubka uchun qancha gazlamani ketishini hisoblash" mavzusini o'qitish metodikasi.
8. "Mahsulotlarga issiqlik ishlov berishning ahamiyati. Issiqlik ishlov berish usullari; qaynatish va qovurish" mavzusini o'qitish metodikasi.
9. "O'zbek milliy taomlaridan suyuq ovqatlar tayyorlash va dasturxonga tortish, "moshxo'rda", "mastava" tayyorlash" mavzusini o'qitish metodikasi.
10. "Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlash xonalari uchun sanitariya gigiena talablari" mavzusini o'qitish metodikasi.
11. "Nonushta, peshin, kechki ovqatlanish uchun dasturxon tuzish" mavzusini o'qitish metodikasi.
12. "Milliy bosh kiyimlaridan do'ppi tikish texnologiyasi" mavzusini o'qitish metodikasi.
13. "Milliy qo'g'irchoq tikish texnologiyasi" mavzusini o'qitish metodikasi.
14. "Zardo'zlik san'ati tarixi va uning rivojlanishi" mavzusini o'qitish metodikasi.
15. "Metallga ishlov beradigan asbob-uskunalarining tuzilishi va vazifasi" mavzusini o'qitish metodikasi.

16. “Qora metalning asosiy mexanik xossalari: qattqlik, elastiklik, plastiklik va mo’rtlik” mavzusini o’qitish metodikasi.

17. “Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizligi qoidalarini o’rganish” mavzusini o’qitish metodikasi.

18. “Yog’och materiallarini rejalash va arralash” mavzusini o’qitish metodikasi.

19. “Yog’och materiallarini randalash” mavzusini o’qitish metodikasi.

20. “Yog’och materiallarni xossalari va ularni quritish” mavzusini o’qitish metodikasi.

21. “Duradgorlik dastgohining tuzilishi va undan foydalanish qoidalari” mavzusini o’qitish metodikasi.

22. “Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari” mavzusini o’qitish metodikasi.

23. “Yog’ochga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushuncha” mavzusini o’qitish metodikasi.

24. “Yog’ochga ishlov berish sohasidagi xalq hunarmandchiligi kasblari haqida tushuncha” mavzusini o’qitish metodikasi.

25. “Iskanalarning turlari va ulardan foydalanish” mavzusini o’qitish metodikasi.

26. “Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizligi qoidalarini o’rganish” mavzusini o’qitish metodikasi.

27. “Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari” mavzusini o’qitish metodikasi.

28. “Duradgorlik dastgohining to’zilishi va undan foydalanish qoidalari” mavzusini o’qitish metodikasi.

29. “Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo’yilgan talablar” mavzusini o’qitish metodikasi.

30. “Kasblar tasnifi” mavzusini o’qitish metodikasi.

Kurs ishini bajarish bosqichlari va uni himoya qilish.

1. Mavzuni tanlash. Kurs ishi rejasini tuzish va uni tasdiqlash.
2. Adabiyotlarni o’rganib tahlil qilish.
3. Ilmiy izlanish yuzasidan ilg’or pedagogik ishlarni o’rganish.
4. Ilmiy izlanishdan olingan ma’lumotlarni jadvalda, diagrammada va sxemada ishlab chiqish.
5. Kurs ishida belgilangan vazifalar hal etiladi.
6. Kurs ish mavzusidagi tayyorlanadigan mahsulotning texnologik xaritasi ishlab chiqiladi.
7. Kurs ish mavzusidagi mahsulot tayyorlanadi va taqdim etiladi.
8. Kurs ishi mavzusi bo’yicha taqdimot tayyorlanadi.
9. Kurs ishini himoya etish jarayonida kafedra o’qituvchilari ishtirok etadi.
10. Kurs ishini baholashda har tomonlama bajargan ishlar hisobga olinadi.
11. Kurs ishi rahbari himoya qilingan ishlarni tahlil qilib, yakunlab beradi.

12. Muddatida ulgura olmagan yoki himoya qila olmagan talaba akadem qarzdor deb hisoblanadi.

O'quv amaliyoti

Talabalarda mehnat ta'limi dasturi mazmuni asosida amaliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv ustaxonalarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'trazish, mehnatni ilmiy va texnika xavfsizligi, sanitariya gigiena talablari asosida tashkil etishni shakllantirish. Oquv amaliyoti ta'lim muassasalarida o'taziladi.

Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Talabalarda maktab o'qituvchisining yillik ish rejasiga asoslangan holda mehnat ta'limi darslarini va umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish. Ta'lim - tarbiyaviy ishlarni asosiy shakllari (dars, amaliy mashg'lot, ekskursiya va boshqalar) ni amaliyotga tadbiiq qilishni o'rgatish. Talabalarda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini va metodlarini qo'llab darslarni (mashg'ulot) o'tishni o'rgatish. Pedagogik amaliyotni o'tashda talabalar umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, kasb hunarga yo'naltirish, uy -ro'zg'or asoslari, mehnat ta'limi praktikumi, texnik ijodkorlik va dizayn, xalq hunarmandchiligi, elektrotexnika robototexnika va elektronika, materialshunoslik, texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo'jaligi asoslari, mehnat ta'limi o'qitish metodikasi fanlaridan egallagan bilimlariga tayanadi.

Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari. Pedagogik amaliyot turlari: passiv, aktiv, tanishuv va uzluksiz shakllari orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan tanishish, o'quv muassasasi rahbarlarining ishlarini, o'quv-tarbiyaviy ishlarini o'rganish, umumiy o'rta ta'lim maktablari darsdan va sinfdan tashqari ishlarni o'rganish. Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar: amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashni amalda sinab ko'rish. Mehnat ta'limi o'qituvchisi va sinf rahbarlari olib boradigan kasbga yo'naltirish ishlari metodlari bilan tanishish hamda ularni o'rganish. Pedagogik amaliyot yuzasidan hisobot tuzish, hujjatlarni tayyorlash va topshirish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

• darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

• tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;

• o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash;

• fanning boblari va mavzulari ustida ishlash;

• talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish;

• yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;

• ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'limning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Mehnat ta'limi fanining tarbiyadagi o'rni nimalardan iboratligini aniqlash.
2. Mehnat ta'limi fanining maktab o'quv rejadagi o'rni.
3. O'rta Osiyoda mehnat ta'limining tarkib topishi.
4. Mehnat ta'limi darslarining maktabdagi o'rnini aniqlash.
5. Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari va ularning ta'limdagi o'rnini aniqlang.
6. Umumli mehnat asosida o'qitishni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganing.
7. Mehnat ta'limida ko'proq samara beradigan o'qitish shakllarini aniqlang.
8. Mehnat ta'limida ekskursiyaning o'rni va ahamiyati haqida referat tayyorlang.
9. Muammoli o'qitish metodini boshqa metodlardan farqini aniqlang.
10. Ko'rgazmali o'qitish metodiga dars ishlanma tayyorlang.
11. Mehnat ta'limida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish mavzusiga dars ishlanma tayyorlang.
12. Operatsion buyum tizimi bilan operatsion kompleks tizimini farqlab bering.
13. Mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalar bo'limiga dars ishlanma tayyorlang.
14. Mehnat ta'limida materialshunoslik bo'limiga referat tayyorlang.
15. Mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalar bo'limiga dars ishlanma tayyorlang.
16. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi mavzusini o'tishda „Aqliy xujum“ metodidan foydalanish uchun 5-6-ta savol tuzing.
17. Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'limiga oid referat tayyorlang.
18. Xalq hunarmandchiligining bugungi kundagi ahamiyati haqida hisobot bering.
19. Aniq mavzularga moslab ko'rgazmali qurollar tayyorlang.